

O'ZBEK TILIDA ARGO, JARGON VA VULGAR BIRLIKLER

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSITITUTI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI

2-BOSQICH TALABASI

QOBULOVA SHUKURXON PAXLA VONJON QIZI



ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi argotizm va jargotizm hodisalari, vulgar birliklar haqida fikr va mulohozalar keltirilgan. Badiiy asarlardan berilgan misollarda argo, jargon hamda vulgar so'zlar tahlil qilingan. Ijtimoiy hayotda ishlatalish ko'lami o'rganilgan. Badiiy asarlardan misollar berilgan.

KALIT SO'ZLAR: Leksema, faol so'zlar, nofaol so'zlar, argo, jargon, vulgar birlik, atama, dialektik birliklar, badiiy asar, ijtimoiy, yashirin ma'no, argotizm, jargotizm.

ARGO, JARGON AND VULGAR UNITS IN THE UZBEKI LANGUAGE

ABSTRACT: This article contains thoughts and comments about argotism and jargotism phenomena, vulgar units in the Uzbek language. Argo, slang and vulgar words are analyzed in the examples given from works of art. The scope of use in social life is studied. Examples from works of art are given.

KEY WORDS: Lexeme, active words, passive words, slang, slang, vulgar unit, term, dialectic units, work of art, social, hidden meaning, argotism, jargotism.

АРГО, ЖАРГОННЫЕ И ВУЛГАРНЫЕ ЕДИНИЦЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ: В данной статье собраны мысли и комментарии о явлениях арготизма и жарготизма, вульгарных единиц в узбекском языке. Арго, сленговые и вульгарные слова анализируются на примерах из художественных

произведений. Изучена сфера использования в общественной жизни. Приводятся примеры из художественных произведений.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Лексема, активные слова, пассивные слова, сленг, народная единица, термин, диалектические единицы, художественное произведение, социальное, скрытый смысл, арготизм, жарготизм.

Til jamiyatga xizmat qiladi. Uning o'ziga xos turli vazifalari, ko'rinishlari mavjud. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasida aloqa almashinuvi uchun xizmat qilish bilan bir qatorda estetik, ya'ni ta'sir qilish vazifasini ham e'tirof etish zarur. Tildan jamiyatning turli vakillari turli ko'rinish va holatlarda foydalanadilar. Til har turda jilolana olish xususiyatiga ega. Jamiyatda yuzlab va undanda ko'p tipdag'i aholi istiqomat qiladilar. Aynan bir qancha soha va kasb-hunar egalari o'zbek tilining leksik qatlamidagi leksemalarni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib qo'llaydilar.

Leksemalar ikki doirada ishlatilishiga ko'ra:

- 1) ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksemalar;**
- 2) ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalarga bo'linadi.**

Birinchi tur leksemalar barcha uchun umumiy va tushunarli bo'lgan, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning nutqiy jarayonida birdek qo'llana oladigan so'zlardir. Ular tilshunoslikda umumxalq leksemalari deb ham yuritiladi.

Ikkinci tipdag'i leksemalar esa jamiyatning ma'lum bir a'zolari, soha vakillari, kasb-hunar foydalanuvchilari, mavjud bir shevada so'zlashuvchilar nutqidagina namoyon bo'ladigan so'zlar sirasidir.

- Dialektik birliklar;
- Kasb-hunarga oid so'zlar;
- Jargon-argolar;
- Vulgarizmlar - ishlatilish doirasi chegaralangan leksemalarning a'zolaridir.

Argo (frans. argot — jargon) — ma'lum toifa kishilarigagina tushunarli so'zlar mavjudligi bilan umumxalq tilidan farq qiluvchi, biror ijtimoiy toifa, guruh (masalan, dallollar, sportchilar, talabalar, o'g'rilar va hokazo)ga xos yasama til.¹

Jargon (fransuzcha: jargon – safsata) — biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos leksikasi, fonetikasi va grammatikasi bilan umum so'zlashuv tili va mahalliy dialektlardan farq qiladigan tili. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi va shular manfaatiga xizmat qiladi (masalan, talabalar, harbiy xizmatchilar, turli kasb, mashg'ulot egalari orasidagi jargon). Bunday jargonlarni kuchli rivojlangan va aniq

terminlarga ega biror kasb tili bilan aralashtirmaslik lozim. Jargon ham leksik, ham uslubiy jihatdan turli-tuman, tezda o‘zgaruvchan, barqaror bo‘lmaydi.²

Argo va jargonlar noadabiy leksik unsurlar sanaladi. Ulardan nima uchun foydalanadilar. Xo’sh, ma’lum bir guruhning vakillari ushbu so’zlardan o’z guruhlarining orasidagina foydalanadimi yoki butun omma ichida argo va jargonlarni qo’llaydimi? Kabi savollarga javob topamiz. Jamiatning turli guruh vakillari o’zlarini uchungina tushunarli bo’lgan so’zlarni o’zlarini uchun sirli va xavsiz bo’lishu uchun o’ylab topganlar. Aytaylik, o’g’rilar, sportchilar, ichuvchilar, dallollar, qassoblar, poraxo’rlar o’zlarini uchun “maxsus” so’zlardan foydalanadilar. Yoshlar orasida ham bir qancha so’zlar mavjud, ular qalin do’stalarini “jigar” deb ataydilar, ketdim o’rnida “sirpandim” kabi so’zlar iste’moldadir.

Badiiy adabiyotda ham bunday so’zlarga misollar bir talay. Kurashchilar hayoti va kurash jarayonlari tasvirlangan Tog’ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida kurashchilar uchun xos bo’lgan leksemalarni ko’ramiz.

“Polvon bo’lsang halol yiqit! Ko’p tersayma! Sezdingmi Abray ko’kraklarini berib olishyapti! Yoqasidan juft qilib ushlab, tikkasiga yag’ringa ol-chi ” (Tog’ay Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”).

Vulgarizmlar – haqorat ma’nosida qo’llaniladigan so’zlar: xunasa, dayus, so’tak, to’nka kabilar. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma’nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo’llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi, ammo badiiy asar tilida bunday so’zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.³

Bunday so’zlarni ijtimoiy hayotda ishlatish madaniyatimizga to’g’ri kelmaydi, albatta. Biroq badiiy uslubda juda ko’p holatda uchraydi. Ijodkorlar o’z asarlarida uslubiy bo’yoqdorlikni va ta’sir etishni namoyon etish uchun vulgar birliklarni qo’llaydilar. Qahramon og’zidan chiqayotgan vulgarlar ularning shaxsiyatini ochib beradi. Qahramonni tipiklashtirishga xizmat qiladi. Masalan, Boburnomada Bobur tilidan aytilgan haqorat so’zlar Boburning qattiqqa’l podshohligidan dalolat beradi.

“Kimki bunday yomon yo’lga qadam qo’ysa va bunday ishga mayl qilsa, qiyomatgacha yuz ming la’natlar bo’lsin. Har kim Xisravshohning qilg’iligini eshitsa, la’natlar aytsin. Bu voqeani eshitib la’natlamagan kishi ham la’natga sazovor bo’lsin”.⁴

O’tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida ham bir qancha qo’pol so’zlarni ko’ramiz.

”Voy ko‘nglingga qo‘tir jomashov. Kimsan akam o‘zimgayam kerak!..”⁵

“- Voy ablah-ey! - Cholim do‘stining yelkasiga qoqdi.

- Qo‘yaver, it akilladi qo‘ydi-da...”⁶

“0‘lsin, muncha sovuq! - dedi hansirab. - Ih, tanchangizdanam muz chiqyapti-ku, xola.”⁷

“- Karmisan! -Melisa uning boshi ustida musht do‘laytirdi.”⁸

Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, badiiy asarlarda qo‘llangan argo, jargon va vulgar birliklar jonli ijtimoiy hayotni ifoda etgan. Personajlar nutqida ko‘zga ko‘ringan jilolar badiiylikni namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, nutq o‘zgaruvchan, individual xususiyatga ega. Minglab, millionlab insonlarda turlicha gavdalanadi. Shaxslarning nutq jarayonlari, nutq shakllari ularning shaxsiy xarakteri va psixik holatini namoyish qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / H.Jamolxonov. – T.: <<Talqin>>, 2005. – 272 b.
2. Berdialiiev Abduvali, Ermatov Ixtiyor. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Darslik. – T.: «TURON-IQBOL» nashriyoti, 2021. – 204 b.
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo’llanma. – Toshkent, 2009 – 391 b.
4. To‘lanova , Mohinur, и Davronbek Sotvoldiyev. «“BOBURNOMA”DA O’SIMLIK VA HAYVONOT OLAMI TASVIRI». Talqin va tadqiqotlar 1, no. 31 (ноябрь 11, 2023)